

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

Fakultet Avtomatika va Boshqaruv

“Informatika” kafedrası

Qo‘lyozma

UDK10 (575.9)

Matyaqubov O.

Mavzu: Issiqlik manbai mijozlariga xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish

Bakavriyat darajasini olish uchun taqdim qilingan

bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbarlar:

f.f.n. Bobojonov K.

t.f.n. Zaripov O.

Toshkent 2007

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

MUNDARIJA

KIRISH.....

I. TIZIMLI TAHLIL VA MASALANING QO'YILISHI

I.1.Issiqlik manbai haqida tushuncha.....

I.2.Mijozlarga xizmat ko'rsatish.....

I.3.Issiqlik manbaida mijozlar bilan ishlashning zamonaviy axvoli.....

I.4.Masalaning qo'yilishi.....

II. ASOSIY QISM

II.1.Qo'llaniladigan dasturlash tillari.....

II.2.Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari.....

II.3.Issiqlik manbai mijozlari ma'lumotlar bazasini loyihalash..

II.4.Dasturiy taminotdan foydalanish uchun yo'riqnoma.

III. MEHNAT MUXOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

ILOVA.

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

Kirish

Avtomatik issiqlik boshqarish nazariyasi texnik va ilmiy soxalar bilan exambarchas bog'langan va bu soxalar natijalaridan o'z masalalarini yechishda foydalanadi. Avtomatik boshqarish nazariyasiga taalluqli masalalar doirasi juda keng. Shuning uchun xam avtomatik boshqarish nazariyasini o'rganishni avtomatik boshqarish sistemalarining umumiy hususiyatlari va ularni tadqiq qilishning umumiy usullari bilan tanishishdan boshlash kerak.

Avtomatik issiqlik boshqarish sistemasi doimo uni istalgan tartibdan chetlatuvchi turli xil to'ydiruvchilar ta'sirida buladi va AIBS ning asosiy vazifasi bu chetlanishlarni kamaytirishdir. Agar AIBS istalgan tartibga kaytarishga kodir bulsa, u barkaror va ishlashga layokatsiz xisoblanadi. Elektir pechkasidagi haroratni dastur bo'yicha rostlash sistemasini loyihalashda har hil usili yordamida avtomatik boshqarish sistemasi turg'un holatdaligini aniqlashimiz kerak.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – ISSIQLIK manbai uchun web texnologiyalar yaratish va uni fan o`qitish jarayonida axborot madaniyatini va axborot xavfsizlikini o`stirish tamoyillarini ishlab chiqish va labaratoriya mashg`ulotlarida ISSIQLIK manbai tushunchalarini singdirib borishdan iborat.

Tadqimot predmeti va maqsadidan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqot ishida quyidagi tadqiqot masalalari qal qilinadi:

Boshqarishni turli hil usullari;

WEB dan turib boshqaruvni osonlashtirish;

Manbaning boshqa maqsadlarda foydalanilishi.

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

I.Tizimli tahlil va masalaning qo'yilishi

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

I.1. Issiqlik tarmoqlari haqida tushuncha.

Davlatimiz rahbari Islom Abdugʻanievich Karimov, Oʻzbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini tahlil qilar ekan, “Respublika energetika mustaqilligiga erishgan taqdirdagina toʻliq mustaqil boʻladi”, - degan edi.

Yirik ishlab-chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatga ega boʻlgan mamlakatimiz energetikasi - butun xalq xoʻjaligi kompleksining rivojlanishiga salmoqli taʼsir koʻrsatib kelmoqda. YAAlpi elektrlashtirish Vatanimiz shaharlari va viloyatlarining ishlab chiqarishi va infratuzilmasini rivojlantirishga, xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlarini industrial yuksaltirishga imkon berdi.

Oʻzbekiston elektrenergetikasi 2001 yildan boshlab “Oʻzbekenergo” Davlat aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat koʻrsatib kelmoqda va oʻz ichiga koʻmir sanoati korxonalarini ham olgan.

Kompaniya tarkibiga 53 ta korxonalar va tashkilot, shu jumladan 39 ta ochiq aksiyadorlik jamiyati, 11ta unitar korxonalar, 2 ta masʼuliyati cheklangan jamiyat va kompaniyaning “Energosotish” filiali kiradi.

Hozirda xususiylashtirish mumkin boʻlgan, kompaniya tarkibiga kirgan korxonalarining ikkitasidan tashqari hammasi davlat tasarrufidan chiqarilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 iyuldagi “2006-2008 yillarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish toʻgʻrisida”gi PP-407 sonli Qaroriga muvofiq, “Tolimarjon IES” korxonasini davlat tasarrufidan chiqarish 2007 yilda amalga oshiriladi, “Toshkent IES” unitar korxonasini esa 2008 yilda davlat tasarrufidan chiqarish rejalashtirilmoqda.

Hozirgi bosqichda kompaniya xalq xoʻjaligi va aholining

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

markazlashtirilgan elektr ta'minotini amalga oshirmoqda, shuningdek respublikaning ayrim shaharlarida sanoat va kommunal – maishiy iste'molchilarga issiqlik energiyasini bermoqda.

Iqtisodiy islohotlar yillari mobaynida sohaning energetik korxonalari tomonidan har yili 48 mlrd. kVt.soat elektr energiyasi va 10 mln. Gkal.dan ortiq issiqlik energiyasi ishlab chiqarilmoqda, bu esa iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabini to'liq qondirmoqda.

O'zbekiston elektr stantsiyalarining o'rnatilgan quvvati 12,3 mln. kVt.dan ortadi va butun Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimidagi ishlab chiqarish quvvatlarining deyarli 50 foizini tashkil etadi.

Umumiy o'rnatilgan quvvati 12,0 mln. kVt bo'lgan 39 ta elektr stantsiyalarini o'z tarkibiga olgan "O'zbekenergo" kompaniyasi amaliy jihatdan respublikada elektr energiyasining asosiy ishlab chiqaruvchisi va etkazib beruvchisi bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvatlarining tarkibida kompaniyaga qarashli elektr stantsiyalarining ulushi 3 foizdan ozrog'ini (320 MVt) tashkil etadi.

Elektr stantsiyalarining o'rnatilgan quvvati respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan tobora o'sib borayotgan talabini qondirish, elektr energiyasini eksportga etkazib berish majburiyatlarini bajarish va mamlakatimizning energetik xavfsizligini ta'minlash uchun etarlidir.

O'zbekiston energetika tizimining asosi umumiy quvvati 10,6 mln. kVt bo'lgan issiqlik elektr stantsiyalaridir (IES). Beshta yirik IESda quvvati 150 dan 800 MVt gacha bo'lgan energobloklar o'rnatilgan. Bular Tolimarjon, Sirdaryo, YAngi Angren va Toshkent IES kabi yirik issiqlik elektr stantsiyalari bo'lib, 85 foizdan ortiqroq elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Kompaniyaning barcha gidroelektr stantsiyalari asosan GESlar kaskadlariga birlashtirilgan va suv oqimi bo'yicha ishlaydi. CHirchiq

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

daryosining yuqori qismida joylashgan eng yirik GESlar (CHorbog', Hojikent, G'azalkent) suv omborlariga egadir. Bu suv omborlari quvvatni rostdash rejimida ishlashga imkon beradi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan birlamchi energiya resurslari tarkibida gaz ulushi 90,8 foizni, mazut ulushi 5,3 foizni, ko'mir ulushi 3,9 foizni tashkil etadi. Bu tendentsiya yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi – asosiy yoqilg'i tabiiy gaz bo'lib qoladi, yoqilg'i balansida ko'mirning ulushi 10 – 12 foizga ortadi.

Respublika iste'molchilariga elektr energiyasini uzatish va taqsimlash 0,4–500 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalari orqali amalga oshiriladi.

Kompaniyaning elektr uzatish liniyalari uzunligi 235 ming kilometr dan ziyodroqdir. Respublikaning barcha iste'molchilari markazlashtirilgan energiya ta'minoti zonasiga ulangan.

Uzunligi 7,5 ming kilometr bo'lgan 220-500 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalarining konfiguratsiyasi energetika tizimining barqaror ishlashini, elektr energiyasini elektr stantsiyalaridan yuklama markaziga uzatishni, elektr energiyasini chegaradosh davlatlarga tranzit etkazib berishni ta'minlaydi.

Elektr uzatish liniyalari orasida eng tarmoqlanganlari 0,4-6-10 kV kuchlanishli taqsimlash tarmoqlari hisoblanadi. Ular orqali respublika iste'molchilariga elektr energiyasi etkazib beriladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, etkazib beriladigan elektr energiyasining asosiy hajmi sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi iste'molchilari va aholi ulushiga to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha bir yilda elektr energiyasi iste'molining solishtirma miqdori (aholi jon boshiga) 1940 kVt.s.ni tashkil etadi.

Respublika xalq xo'jaligi va aholisini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, mamlakatimiz elektroenergetikasini barqaror va samarali rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida "O'zbekenergo"

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

DAK tizimi bo'yicha 2010 yilgacha bo'lgan davrga ishlab chiqaruvchi quvvatlarni rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish dasturi qabul qilingan. Sohani rivojlantirish Dasturini amalga oshirish doirasida 2005 yilda Tolimarjon IESning 800 MVt quvvatli 1- energoblokini qurish yakunlandi. Uning ishga tushirilishi bilan elektr energiyasini uzatishdagi energiya isroflari qisqardi.

Blokning 700 kVt gacha yuklama bilan barqaror ishlashi 2006 yil davomida 4,8 mlrd. kVt.s.dan ko'proq elektr energiyasini ishlab chiqarishga imkon yaratdi. Bundan tashqari, mazkur energoblokning ishga tushirilishi Samarqand – Buxoro mintaqasidagi iste'molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlashga ko'mak berdi, natijada energetika tizimining markaziy qismidan elektr energiyasini uzatish zarurati barham topdi. Elektr energiyasini uzatishdagi energiyaning texnologik isroflari qisqardi, bundan tashqari, 230 ming tonnadan ziyod shartli yoqilg'ini qo'shimcha tejashga erishildi; elektr tarmoqlari rejimlarining optimal parametrlari ta'minlandi.

Tolimarjon IESning faoliyat ko'rsatishi elektr energiyasini ishlab chiqarish balansida, umuman olganda, shartli yoqilg'i solishtirma sarfining 8,0 t/kVt.s.ga kamayishini ta'minlaydi.

Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining krediti hisobiga Sirdaryo IESda har birining quvvati 300 MVt bo'lgan ikkita (7 va 8 sonli) energoblokning rekonstruktsiyasi yakunlandi, bu esa har bir blokning loyihaviy quvvatini tiklashga va yoqilg'ining solishtirma sarfini 40 g/kVt. soatga kamaytirishga imkon yaratdi.

Hozirgi vaqtda xalqaro kredit institutlarining resurslarini jalb qilgan holda qator investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etilmoqda. Quvvati 370 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmasi negizida energiya ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan holda Toshkent IESni

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

modernizatsiyalash ishlari boshlab yuborildi. Rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish jarayonida Navoiy IES, Muborak va Toshkent IEMda ishlab chiqarish uskunalari yangilash ham ko'zda tutilmoqda.

Samarqand viloyatida umumiy quvvati 1002 MVA bo'lgan ikki transformatorli 500 kV So'g'diyona nimstantsiyasi qurilishining yakunlanishi va ishga tushirilishi bilan iste'molchilarga etkazib berilayotgan elektr energiyasining sifatini oshirish, elektr energiyasini uzatishdagi isroflarni kamaytirishga erishildi.

Kompaniya o'zining pudratchi tashkilotlari kuchlari bilan 220-500 kV kuchlanishli tizimni tashkil etuvchi magistral tarmoqlarni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirmoqda.

Sirdaryo IES – So'g'diyona NS 500 kV HL qurilishi bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Qurilishni qisman Islom Taraqqiyot Banking kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish (25,1 million AQSH dollari) mo'ljallanmoqda.

Respublikamiz poytaxti Toshkentning elektr ta'minoti ishonchliligini oshirish maqsadida 110 – 220 kV kuchlanishli bir qator ob'ektlarni, shu jumladan 110 kV yopiq nimstantsiyalarni va kabel liniyalarini qurish ko'zda tutilmoqda.

Hammasi bo'lib 800 km.ga yaqin magistral elektr uzatish liniyalari, shuningdek tizimga qarashli nimstantsiyalarda 2,4 mln. kVA transformator quvvatlarini ishga tushirish mo'ljallanmoqda.

SHu bilan bir qatorda, tiklanayotgan energetikani taraqqiy ettirish borasida birinchi navbatda, gidroenergetik salohiyatdan foydalanish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligida, qishloq xo'jaligi ob'ektlarida foydalaniladigan kichik gidroenergetikani rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Mazkur Dasturga ko'ra umumiy

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

o'rnatilgan quvvati 420 MVt bo'lgan, yiliga 1,3 mlrd. kVt.s. elektr energiyasini ishlab chiqaradigan 15 ta kichik GES qurish nazarda tutiladi. 2007 yilda kompaniya energetika tizimini 2020 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish sxemasini ishlab chiqishga kirishdi. Bunda zamonaviy texnologiya va uskunalarni joriy etish bilan bir qatorda, ishlab turgan energetik ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish ishlari davom ettiriladi. O'zbekiston elektr energetikasini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, elektr energiya bozorini shakllantirish va rivojlantirish;
- respublika iqtisodiyotini va aholisini sifatli elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;
- energetik korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- energetik ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimi doirasida integratsion jarayonlarni yanada rivojlantirish.

Qabul qilingan Dasturlarni bajarish natijasida jamiyatning samarali hayot faoliyatini ta'minlovchi, mamlakat aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va turmush darajasini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratuvchi elektrenergetika sohasining faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar bunyod etildi.

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

I.2. Mijozlarga xizmat ko'rsatish.

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

I.3.Issiqlik tarmoqlarining zamonaviy axvoli.

Hozir O'zbekiston issiqlik stansiyalarining ja'mi o'rnatilgan quvvati 12,3 mln kVtga tengdir. Uning tuzilmasida gidroissiqlikostansiyalar 11,5%ni, issiqlik stansiyalari 86%ni tashkil etadi, bu "O'zbekenergo" kompaniyasining qudratidan dalolat berib turibdi, ja'mi issiqlik stansiyalarning faqatgina 2,5% boshqa idoralar qaramog'ida ishlatilmoqda.

Issiqlik energiyasining asosiy qismini ekologiya nuqtai nazaridan qaraganda juda qulay yoqilg'i balansiga ega bo'lgan issiqlik stansiyalari ishlab chiqaradi, unda gazning salmog'i 85% ni tashkil qiladi. Energetika tizimining asosini quvvati 3000 MVt bo'lgan Sirdaryo IESi, 1860 MVt bo'lgan Toshkent IESi, 2100 MVt bo'lgan Yangi Angren IESi va 1250MVt bo'lgan Navoiy IESi kabi yirik issiqlik stansiyalar tashkil qiladi. Bu nurxonalarda bir yo'la quvvati 150 MVtdan 300 MVtga yetgan necha o'nlab energetika bloklari o'rnatilgan. Mamlakatning gidroenergetikasi beshta kaskadga birlashgan 28ta GESdan iborat. Bular orasida eng yiriklari - suv omborlari bo'lgan, stansiyalar quvvatni tartibga solib turish rejimida ishlay oladigan, quvvati 600 MVtli Chorbog' va quvvati 165 MVtli Xo'jakent GESlaridir. Qolgan GESlar suv oqimi bo'yicha bazis rejimda ishlaydi. Energiya ta'minoti va irrigatsiyaga oid kompleks masalalarni xal etayotgan bu nurxonalar nisbatan arzon issiqlik energiyasini hosil qilmoqdalar. Issiqlik energetikasi tarmog'i taraqqiyotining asosiy nizomlari va yo'nalishlari, respublika Hukumati ma'qullagan, "2010 yilga qadar bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi energetikasining ravnaqi va energiya ishlab chiqarayotgan quvvatlarning rekonstruksiyasi Dasturi"da o'z aksini topgan. Issiqlik stansiyalari va tarmoqlarini texnikaviy jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiyalash - shu yaqin orada va o'rta muddatli davrda tarmoqning bosh strategik vazifasidir. Dasturdagi eng muhim vazifalar qatoriga issiqlik energetikasi taraqqiyotining asosiy son va sifat parametrlarini aniqlab olish hamda shu parametrlarga erishishning aniq mexanizmlarini belgilash kiradi.

2010 yilgacha bo'lgan davrda issiqlik energetikasi ravnaqining strategik maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakat energetika mustaqilligini asrash va mustahkamlash;

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

- energetika quvvatlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash, iste'molchilarga sifatli issiqlik va issiqlik energiyasi yetkazib berish;
- yoqilg'i - energetika resurslaridan foydalanishning samaradarligini ko'tarish maqsadida energetika ishlab chiqarishini bundan buyon ham takomillashtirish;
- energetika ishlab chiqarishining atrof muhitga texnogen bosimini ancha kamaytirish.

Issiqlik energetikaning negizi doimgidek IESlar bo'lib qolaveradi, uning ulushi o'rnatilgan quvvat tuzilmasida 86% tashkil qiladi. Toshkent va Navoiy IESlari, Muborak va Toshkent IEMlaridagi bug'-gaz turbinalar negizida rekonstruksiya va modernizatsiyalash yo'li bilan energiya hosil qiluvchi quvvat ehtiyojini o'stirib borishga erishiladi. 500-220kVli nimstansiyalarda 2500MVAli transformator quvvatlarini ishga tushirish mo'ljallangan, ayni vaqtda 110-500kV kuchlanishdagi 700kmdan ko'proq issiqlik uzatish liniyalari quriladi. Dasturda 2010 yilga kelib, sarflanayotgan yoqilg'i tuzilmasida o'zgarishlar bo'lishi nazarda tutilmoqda: gazning salmog'ini 80%ga tushirib, ko'mirning ulushi 12%gacha ko'tariladi. Istiqboldagi davrda issiqlik energetikasining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning ko'zda tutilgan o'sib borishiga erishish va iste'molchilarning energiya ta'minoti ishonchliligini yetarli darajada bo'lishini ta'minlash, shuningdek ishlatilayotgan issiqlik stansiyalari va tarmoqlarini texnikaviy qayta jihozlashni o'tkazishning sur'atlari va muddatiga muvofiq tarzda belgilanadi.

2010 yilgacha bo'lgan davrda issiqlik energetikasining investitsiyalarga ja'mi ehtiyoji 1,0mlrd. AQSh dollariga teng bo'ladi, deb baholanmoqda. Dasturni amalga oshirish mexanizmiga ko'ra, zarur bo'ladigan moliyaviy resurslar umumiy hajmining uchdan biri o'z mablag'lari evaziga qoplanadi, 10-12% ni markazlashtirilgan kreditlar, qolgan qismi, ya'ni yarmidan ko'prog'ini chet el kreditlari va tovar kreditlarini jalb etish evaziga qoplash mo'ljallanmoqda. Issiqlik energetikada o'tkazilayotgan qayta restrukturizatsiyalash, bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo'lgan, boshqaruvning yangi progressiv shakllarini tarmoqqa joriy etish bunga ko'p jihatdan ko'maklashadi.

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

2001 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan energetika va issiqliklashtirish vazirligining tuzilmaviy bo'linmalari negizida "O'zbekenergo" Davlat aksiyadorlik kompaniyasi ("O'zbekenergo" DAK) tuzildi.

2004 yilda kompaniyada issiqlik energetikasi va ko'mir tarmoqlari boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish, issiqlik energiya va ko'mirni ishlab chiqarish, uzatish-tashish hamda sotish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni yaxshilash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va respublika aholisini energiya bilan barqaror ta'minlash, issiqlik energetika va ko'mir sanoat tarmoqlarining bir me'yorda va muvozanatli ravnaqini ta'minlash, issiqlik energiyasi va ko'mirni ishlab chiqarish va sotish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2004 yilning 21 iyunida "O'zbekenergo" DAK tashkiliy faoliyatini takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qarorda energetika tarmog'i korxonalarini monopoliyadan chiqarish xususiylashtirish, aksiyadorlash jarayonlarini yanada jadallashtirish, tarmoq korxonalarini vazifalarini aniq ravshan chegaralab qo'yish nazarda tutilgan, bu esa energiya ishlab chiqarish, uni uzatish va sotishni, shuningdek korxonalar o'rtasida birdamlik, muvozanat, hamjihatlikni ta'minlaydi.

"O'zissiqlik tarmoq" UKning magistral issiqlik tarmoqlari negizida issiqlik energiyasini uzatish bo'yicha 5ta mintaqaviy filial tuzildi, bular - Markaziy, Sharqiy, Janubiy, Janubi-/arbiy va Shimoli-/arbiy METlaridir. 35 va 110 kVli taqsimlash tarmoqlari "O'zissiqlik tarmoq" UK balansidan issiqlik energiyasini taqsimlash va sotish bo'yicha mintaqaviy korxonalar balansiga o'tkazildi.

Hozirgi bosqichda kompaniya tarkibiga 53 korxonalar, shu jumladan 37 ochiq aksiyadorlik jamiyati (shu qatorda "O'zbekko'mir OAJ), 12 unitar korxonalar, 3 ta ma'suliyati cheklangan jamiyat va "Energosotish" filiali kiradi. Hozir tarmoqda islohot jarayoni davom etmoqda: faoliyatning monopoliya (dispetcherlash va issiqlik energiyani uzatish) va raqobat (sotish va ishlab chiqarish) turlari ajratilmoqda va issiqlik energetika tarmog'iga bozor munosabatlari elementlari joriy etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 noyabridagi "Issiqlik energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 511 sonli qarori va "Issiqlik enegiyasi sotilishi hamda undan foydalanilishini hisobga olish va nazorat qilish tizimini mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 512 sonli qarori asosida yetkazib berilgan issiqlik energiyasi uchun hisob-kitob ishlarini yaxshilash, to'lovlarning hammasi o'z vaqtida to'lanishi, issiqlik energiyasini hisobga olish tizimini takomillashtirish yuzasidan kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda issiqlik energiyasi va quvvati bozorini shakllantirish va rivojlantirish uchun zamin yaratilgan.

2.1. ISSIQLIK STANTSIYASINIG Web-sahifalarga qo'yilgan asosiy talablar

Brauzerlarni tanlash va yangi texnologiyalardan foydalanish to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilish ko'p hollarda foydalanuvchilarning tanlangan auditoriyasiga bog'liq bo'ladi. Yangi sayt ishlab chiqishdan avval tadqiqotlar o'tkazib, qanday platformalar, brauzerlar, texnikaviy yangiliklar afzal ko'rilyapti, foydalanuvchilar ulanishning qanday tezliklaridan foydalanayotganligini aniqlash zarur. Agar mavjud sayt qayta ishlanayotgan bo'lsa, oldin serverda ro'yxatga olingan yozuvlar, saytdan foydalanish to'g'risida saqlanayotgan axborot tahlil qilinadi.

Hamma narsani oldindan ko'ra bilish mumkin emas, lekin dastlabki bosqichda quyidagi qoidalarga amal qilish mumkin:

- agar ilmiy yoki akademik mazmundagi sayt ishlab chiqilayotgan bo'lsa, ushbu sayt linux (yoki boshqa nografik brauzer)da qanday ishlashiga alohida e'tibor qaratish zarur;
- agar sayt iste'molchilar uchun mo'ljallangan, masalan, sayt bolalar uchun o'rgatuvchi o'yinchoqlarni taklif etadigan bo'lsa, faol-brauzerlar uchun saytning yuklanish tezligi va tashqi ko'rinishiga e'tibor beriladi;
- agar sayt nazorat ostidagi iste'molchilar uchun mo'ljallangan, masalan, korporativ bo'lsa, mijozlar qaysi platforma va qanday brauzerlardan

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

foydalanishini aniq bilgan holda, bu brauzer nimaga qodirligini, shu jumladan tovush effektlari - xushtaklar, qo'ng'iroqlar va hatto o'z ishlanmalarini ko'rsata oladi;

- agar yosh fanatlar uchun kompyuter o'yinlari sayti ishlab chiqilayotgan bo'lsa, ular brauzerlar va o'rnatilgan ilovalarning eng so'nggi versiyalaridan foydalanishlari (yoki bu narsa ular uchun zarurligini aytilsa, albatta uni topishlari) ni aniq taxmin qilish mumkin.

Ko'p maqsadli saytlarning aksariyati uchun «farqlarni ajratish» yondashuvidan foydalanish ma'quldir, agar resurslar imkon bersa, bir nechta versiyalarni yaratib va ularga tegishli xizmat ko'rsatiladi.

Qanday qilib displeylarning ko'plab turlari va ko'rish shart-sharoitlari sahifalarni ishlab chiqishda qarorlar qabul qilishga ta'sir etishi mumkin? Ko'pincha displeylarni faqat uning o'lchamlariga (yoki, aniqroq aytilsa uning ajrataolishiga) ko'ra va rang imkoniyatlari bo'yicha farqlaydilar. Shunga qaramay, farqlar shu bilan tugamasligini yodda tutish zarur. Ba'zi foydalanuvchilar saytni televizor ekranlarida ko'rishlari mumkin. Boshqalari Web sahifani o'z kaftlarida PDA (Personal Digital Assistant, personal raqamli kotib) yoki uyali telefon ekranida ko'rishlari ham mumkin. Ko'rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchilar esa yaratilgan web-sahifani ko'rmaydilar, balki eshitadilar.

Displey o'lchamini bilish - bu faqat ishning bir qismi, xolos, chunki operatsion tizim va brauzerning o'zi ekranda ancha katta joyni egallaydi. Brauzer oynasidagi haqiqatan ham foydalanilishi mumkin bo'lgan makon o'lchami (u brauzer oynasining «ishchi» yoki «tirik» makoni deb ham ataladi) kompyuterning operatsion tizimi, foydalanilayotgan brauzer va foydalanuvchining o'zi shaxsan o'rnatgan parametrlarga bog'liq bo'ladi.

Oynaning eng kichik ish makoni brauzerning barcha ko'rinadigan asboblari (tugmachalar, joylashish panellari va aylantirish polosasi kabilar) bilan

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

o'lchanadi. Oynaning eng katta ish makoni barcha majburiy bo'lmagan elementlarni yopgan holda o'lchanadi, bu brauzer oynasining ushbu ajrata olish uchun eng katta bo'lishini ta'minlaydi.

Lekin bu faqat ikkita eng chekka holatlardir. Amaliyotda brauzer oynasining o'lchamlari o'zgarib turadi. Tugmachalarning bir qismi ekranda ko'rinib turadi, lekin hammasi emas. Aylantirish polosalari avtomatik tarzda ulanib va o'chirib turiladi, shuning uchun ularni hisobga olish qiyin. Ajrata olishi juda yuqori bo'lgan (1024 piksel va undan yuqori) displeydan foydalanuvchilar har doim oynani to'la ochadilar, ko'pincha esa bir vaqtning o'zida bir nechta oynani ochadilar. Bular bilan bir qatorda yana ko'plab ma'lum bo'lmagan omillar borki, ular ham brauzer oynasi o'lchamiga ta'sir qilishi mumkin.

Displey ranglarining o'ziga xos xususiyatlari. Monitorlar, agar ular rangli bo'lsa, tasvirlab beradigan ranglari bo'yicha farqlanadi. Bu ishlab chiqaruvchining qaroriga ta'sir qiladigan yana bitta omil. Monitorlar odatda 24-razryadli (16,77 mln. rang), 16-razryadli (65 536 rang) yoki 8-razryadli (256 rang) bo'ladi.

«Haqiqiy», ranglarning 24-razryadli makonida olingan ranglar 8-razryadli displeylarda brauzerlar bilan ishlov berilganda buziladi (dog'lar va mayda xollar bilan chiqariladi).

Lekin 216 rangdan iborat to'plam mavjud bo'lib, u MasOS va Windows tizimiy palitralari ranglaridan tuzilgan va 8-razryadli displeylarda buzilmaydi. Bu ranglar to'plamining nomlaridan biri - Web-palitra (Web Palette). Ko'pchilik dizaynerlar sahifa barcha foydalanuvchilar uchun birdek ko'rinishi uchun Web-grafik va HTML elementlarini yaratishda shu palitradan foydalanishni afzal biladilar.

Agar sayt monoxrom yoki yarimtonli (Gray Scale) displeylardan foydalanuvchilarga mo'ljallanadigan bo'lsa, yuqori kontrastli grafika qo'llanishi zarur. Ranglar kulrangning ko'plab tuslariga o'zgartirilganda (yoki qora va oq

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

piksellar bilan aralashtirilganda), faqat ularning yorqinligi ahamiyatga ega bo'ladi. To'q kulrang-yashil fonda yozilgan to'q qizil rang matnni tasavvur qilib ko'ring. Bular kontrast tuslarning rangi bo'lsa ham, ular umumiy yorqinligi bo'yicha bir-biriga yaqin, shu sababli matn yarimtonli displeyda ko'rilganda deyarli ko'rinmaydigan bo'lib qoladi.

Web-sahifaning aniq o'lchamini aniqlashdagi birinchi qadam displey ta'minlab beradigan eng katta makonni aniqlash bo'lishi zarur. Kompyuter displeylari turli standart o'lchamlarga ega bo'ladi va, odatda, dyuymlarda o'lchanadi. Displeylarning ba'zi bir tipik o'lchamlarini keltirish mumkin - 14", 15", 17", 19" va 21".

Displeyning ajrata olishi - ekrandagi piksellarning umumiy soni (picture' s element - surat elementi) ancha muhim tavsif hisoblanadi. Ajrata olishi qanchalik yuqori bo'lsa, tasvir shuncha mufassal va aniq ko'rinishi mumkin. Piksellarning sonini bilgan holda unga muvofiq ravishda tasvir (piksellarda o'lchanadigan) va sahifa elementlarini yaratish mumkin.

Shuni yodda tutish muhimki, ushbu displeyda ajrata olish qanchalik yuqori bo'lsa, ekranning mavjud makonida shuncha ko'p piksellar presslangan bo'ladi. Natijada piksellar kamroq bo'lib qoladi va tegishlicha sahifaning boshqa elementlari va tasviri ham kichiklashadi.

Aynan ana shu sababga ko'ra Web da o'lchovlar dyuymlarda emas, balki piksellarda o'lchanadi. Sayt yaratayotgan mutaxassis tizimida dyuymlarda berilgan kattalik boshqa foydalanuvchilarning displeylarida kamroq yoki ko'proq ko'rinishi mumkin. Piksellar bilan ishlayotganda elementlar o'lchamining bir-biriga nisbati qandayligini bilish mumkin.

Endilikda Web-sahifa nafaqat shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallanibgina qolmay, Web-brauzerlar Web-TV, cho'ntak PDA-qurilmalari va hatto uyali telefonlar shaklida yashash xonalari, portfellar va mashinalarga tobora dadil kirib bormoqda. Dizaynerlarning yangi tashvishlari ular

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

displeylarining o'lchamlari juda kichikligi bilan bog'liqdir.

Web sahifalarning yanada ko'proq ommalashuvi aloqaning cho'ntak kompyuterlari, PDA va uyali telefonlar kabi cho'ntak qurilmalaridan foydalanishning tobora kengayib borishi bilan birgalikda shunga olib keldiki, Web-brauzerlar juda kichik o'lchamlargacha zichlashdi. Bunday qurilmalarning aksariyati sayt mazmunini aks ettirish uchun «yupqa» mijoz (thin client) - mijoz-terminal kabi brauzerlardan foydalanadi. Brauzerning bu turi protsessorga juda kam talablar qo'ygan holda mijoz tomonida ishlatiladi va ishlarning asosiy hajmini bajarishni serverlarga qoldiradi.

Masalan, HitchHiker brauzeri tomoni 2 dyuymli uyali telefonning monoxrom kvadrat displeyida ishlash uchun maxsus ishlab chiqilgan. ProxiWeb brauzeri ommalashgan PDA PalmPilot (shuningdek, IBM WorkPad va yangi Palm III) dan erkin foydalanishni ta'minlaydigan boshqa mijoz misoli sifatida keltirilishi mumkin. U portativ qurilmalarda aks ettirish uchun mo'ljallangan Web-sahifalarga ishlov beradigan proksi-serverdan foydalanib ishlaydi. ProxiWeb hatto grafikani ham monoxrom maishiy kartalarga aylantirib beradi, bunda muayyan darajada sahifaning dastlabki ko'rinishi saqlanib qoladi (bu grafik sarlavhalar uchun eng foydalidir).

Portativ qurilmalar uchun uncha ko'p sayt maxsus ishlab chiqilmagan, lekin ular tobora ommalashib borayotganligi sababli, hozirning o'zidayoq foydalanuvchilarning bu qismi manfaatlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Aksariyat hollarda, cho'ntak qurilmalari displeylari makonining cheklanganligi sharoitida Linux kabi matnli brauzerlar uchun foydalanish mumkin bo'lgan saytlar yaratish bo'yicha tavsiyalar sahifalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Bunda erkin foydalanishni ta'minlash bo'yicha yuqoridagi maslahatlarni ham hisobga olish zarur.

O'zgaruvchan sahifalar (o'lchami o'zgaradi va oynaning turli o'lchamlariga sozlanadi) va o'lchami qaydlangan (ishlab chiquvchiga sahifalar o'lchamini

Bajardi:	Matyaqubov		
Tekshirdi:	t.f.n. Zaripov O	Bet:	

yaxshiroq boshqarish imkonini beradi) sahifalar o'rtasida ulardan birini tanlash masalasi displeyning ajrata olish xususiyatlari bilan bog'liq. Har bir yondashuv foydasiga ancha salmoqli dalillar mavjud. Tabiiyki, ularning har biriga qarshi chiqish va yoqlash uchun yaxshigina sabablarni topish mumkin.

Moslashuvchan sahifalarni ishlab chiqish. Web-sahifalar sukut bo'yicha moslashuvchan qilib ishlab chiqiladi fayl matni va elementlari brauzer oynasiga tushadi, bunda ular, displeyning o'lchamidan qat'iy nazar, butun makonni to'ldiradi. Agar brauzer oynasining o'lchami o'zgarsa, elementlar yangi o'lchamlarga sozlash uchun boshqatdan kiritiladi. Web sahifalarning mohiyati mana shunda namoyon bo'ladi. Ko'plab dizaynerlar ongli ravishda sahifalarni ular Web-oyna kengayishlari va zichlanishlariga bardosh berishi uchun shunday qilib ishlab chiqadilar. Bu yondashuv o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Afzalliklari:

- Web-sahifalar ajrata olishi turlicha bo'lgan displeylarda aks ettiriladi, moslashuvchan sahifani har qanday displeyga chiqarish uchun sozlash mumkin;
